

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ONLAYN SAVDO-SOTIQ BILAN BOG'LIQ LEKSIKANIY QIYOSIY TADQIQI

*Ramazonov Shohruh Nusratillo o'g'li, TerDU Xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchisi*

## COMPARATIVE STUDY OF ONLINE SHOPPING VOCABULARY IN ENGLISH AND UZBEKI

*Ramazonov Shahrukh Nusratillo o'g'li, a teacher at TerDU Faculty of Foreign Philology*

## СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИКИ ОНЛАЙН-ПОКУПОК НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Рамазонов Шохрух Нусратилло оглы, преподаватель факультета Иностранной филологии ТерДУ*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan hamda savdo-sotiq bilan bog'liq leksikaning qiyosiy tadqiqini ingliz va o'zbek tillarida ko'rib o'tamiz. Savdo-sotiqqa doir terminlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda leksikaning qiyosiy muammolariga yechimlarni keltirib o'tamiz. Bundan tashqari, ushbu maqola yuzasidan bir qancha tarjimonlarning ilmiy ishlari va adabiyotlarini ham keltirib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** leksika, onlayn savdo-sotiq, qiyosiy tadqiq.

**Аннотация:** В данной статье мы рассмотрим сравнительное исследование лексики, основанной на рыночной экономике и связанной с торговлей, на английском и узбекском языках. Предоставляем решения сопоставительных задач лексики при переводе деловых терминов с одного языка на другой. Кроме того, в связи с этой статьей мы будем цитировать научные труды и литературу нескольких переводчиков.

**Ключевые слова:** лексика, интернет-магазины, сравнительное исследование.

**Abstract:** In this article, we will consider the comparative study of the lexicon based on the market economy and related to trade in English and Uzbek languages. We provide solutions to the comparative problems of the lexicon in the translation of business terms from one language to another. In addition, we will cite the scientific works and literature of several translators in connection with this article.

**Keywords:** lexicon, online shopping, comparative study.

**KIRISH.** Leksika (yun. lexis — so'zga oid, lug'aviy) — tildagi barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, tilning lug'at tarkibi. Leksika ma'lum

qonun-qoidaga bo'ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til Leksikasi to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bu narsa lug'at tarkibida yangi so'zlarning



<https://orcid.org/0000-0009-0519-7812>

e-mail:  
[shakhrookhramazanov@gmail.com](mailto:shakhrookhramazanov@gmail.com)

paydo bo'lishi, mavjud so'zlardan ayrimlarining eskirib, iste'moldan chiqishi, leksik ma'nosini o'zgartirib, yangi ma'no kasb etishi kabi jarayonlarda ko'rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o'zgarishi bilan uzviy bog'langan holda leksika boyib boradi. XX asrda barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o'sib, taraqqiy etdi. O'zbek tili leksikasiga baynalmilal so'zlar keng ko'lamda kirib keldi. Buning ustiga, fan va turli sohalar terminologiyasi ham to'xtovsiz o'sib bormoqda.

**MUHOKAMA.** O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam, shuningdek, o'z qatlam tarkibida umumturkiy so'zlar va ulardan yasalgan o'zbekcha so'zlar mavjud. O'zlashma qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalmilal so'zlar bor. O'zbek tili leksikasi zamonaviyligi jihatdan 3 asosiy qatlamga bo'linadi: 1) zamonaviy qatlam — eskilik va yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar. Shu qatlamga oid so'zlar o'zbek tili leksikasining asosini tashkil qiladi; 2) eski qatlam — hozirda ham iste'molda bo'lgan istorizmlar, arxaizmlar bu qatlamga kiradi;

3) yangi qatlam — yangi leksika deb ham yuritiladi.

Lug'aviy birliklar ishlatilish doirasi jihatdan 2 qatlamga ajratiladi: 1) ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar. Ma'nosi shu tilda so'zlovchilar uchun tushunarli va umumqo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar umumiste'moldagi chegaralanmagan leksika sanaladi; 2) ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar — til lug'at tarkibining ajralmas qismi bo'lib, uning tarkibiga dialektal, terminologik kasb-hunar leksikasi, ilmiy atamalar, jargon va argolar, vulgarizm va varvarizmlar kiradi. Lug'aviy birliklar nutq ko'rinishlari jihatidan adabiy va so'zlashuv nutqiga xoslangan bo'ladi. Leksika termini biror muallif yoki asar leksikasi kabi tor ma'noda ham qo'llanadi, misol uchun: Navoiy leksikasi, "O'tkan kunlar" romani leksikasi. Ad.: Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili, T, 1965. Bozorboy O'rinboyev.

"Onlayn buyurtmalar shu qadar mashhur bo'lgani bois ham aholiga o'z xizmatini taklif qiluvchi har bir markaz, shaxobcha, do'kon, eng avvalo, o'zining onlayn sahifasini yaratishga intiladi, yaratganda ham mijozlarning undan foydalanishini maksimal darajada oson qilishga urinadi. Zero

amerikaliklar ta'bi o'ta nozik insonlar, qolaversa, raqobat shu qadar kuchliki, har qanday oqsoqlangan onlayn savdo o'rnini bosuvchi biroz yengilroq, arzonroq, yetkazib berishda ancha tezkorroq minglab boshqa savdo resurslari mavjud. Balkim shuning uchun ham, bu holatdan yaxshi xabardor bo'lgan amerikaliklar o'ta taniq bo'lib olishgan. Adolat yuzasidan ta'kidlab o'tish joizki, birrovgina shu imkoniyatdan foydalangan har qanday muhojir ham aslida amerikaliklar kabi o'ta nozik ta'b mijoz bo'ladi qoladi. "Ee, bunisi bo'lmasa ana unisi bor, boshimni qotirib nima qildim", deydigan bo'lib qoladi. Amerikachilik.

Bugun hech kimga sir emaski, Amerikada tabaqalanish juda ham kuchli, bu u qadar katta sir emas va amerikaliklar uchun bu holat uyatli sanalmay qolganiga ham, aftidan ancha bo'lgan. Aytishlaricha, ayni shu tabaqalanish hatto onlayn savdo takliflarida ham seziladi. Ya'ni millionerlar, millionerlikka sal yaqinlashib qolganlar va garchi millioner bo'lmasa-da, boyligi yetarli bo'lganlar uchun alohida savdo resurslari mavjud. Imkoniyati cheklangan inson onlayn sahifani ko'rar payt narxlardan hushini yo'qotmasin uchun bu resurslar cho'ntagi baquvvat mijozlar uchun alohida a'zolik kartalarini tarqatadi. Onlayn savdo qilar payt siz o'sha a'zolik kartadasigi kerakli raqamlarni kiritasiz va shundan so'ng savdoni amalga oshirasiz. Aytishlaricha shunday, ammo millionerlik hali-beri nasib qilmagani bois, buni qat'iy ta'kidlash qiyin. Sizning ham vaqtingizni olmay, hamma uchun ochiq bo'lgan resurslar haqida gaplashsak. Demak, Amerikada istagan narsangizni (inson va uning ichki va tashqi a'zolaridan tashqari, albatta) onlayn sotib olishingiz mumkin. Mahsulotlar odatda bir necha daqiqa, soatdan boshlab bir necha kungacha bo'lgan muhlatda sizga yetkazib beriladi. Aytaylik taom, o'zbekcha aytganda shundoqqina qaynoq holatda, endigina tandirdan uzilganday qilib bir necha daqiqalarda yetkazib beriladi. Aytgancha, agar ko'chada avtomobillar tirbandlik payti bo'lmasa. Afsuski, tirbandlik Amerikada mavjud bo'lgan eng yirik muammo va uning yechimi hali topilgani yo'q. Ammo tirbandlik yo'q bo'lsa, bir necha daqiqada istagan taomingizni qabul qilib olasiz. Yaqin kungacha taomlar yemakxonalarning o'z haydovchilari tomonidan yetkazib berilar edi, ammo bugun bu yumush bir necha xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi. Shunchaki tanlang, buyurtma

bering va qabul qilib oling. Taom yetkazib beruvchi xizmatlar, men istiqomat qiluvchi Pitsburg shahrida: Grubhub, Doordash, Postmates, Uber eats. Bundan tashqari ayrim yemakxonalar o'z haydovchilariga ham ega, odatda pitsaxonalarda shunday. Oziq-ovqat savdosi bilan shug'ullanuvchi do'konlar ham ana shunday xizmat turini taklif qiladi va ularning ham o'z yetkazib beruvchi haydovchilari bor.

Oziq-ovqat xarid qilish biroz sinchkovlikni talab qiladi. Zero ma'lumki, onlayn savdoda sotib olishni mo'ljallaganingiz mahsulotning asl holati, ayniqsa, ta'mi va sof ko'rinishini bilish qiyin. Fotosurat baribir fotosurat-da, axir. Shu bois, aksar hollarda amerikaliklar onlayn buyurtmadan so'ng mahsulotlarni o'zlari shaxsan olib ketishlarini aytishadi va savdo markaziga shaxsan borishadi. Unda onlayn savdoning nima keragi bor, borib olaveradi-da, deyishingiz mumkin. Bir tarafdin juda o'rinli savol. Ammo gap shundaki, onlayn savdoda siz muntazam kuzatiluvchi uzundan uzoq navbatda turmaysiz, u bo'lim bilan bu bo'lim orasida ovorai sarson bo'lmaysiz. Onlayn buyurtma berasiz, so'ng do'konga kelgach u yerdagi maxsus yo'lakcha oldida to'xtab, o'sha yerga o'rnatilgan tugmachani bosasiz, do'kon xodimlari sizdan onlayn buyurtmangizni tasdiqlovchi maxsus raqamni so'raydi. Sizga berilgan raqamni aytganingizdan so'ng, xarid qilganingiz mahsulotlarni avtomashinangiz yukxonasiga joylab berishadi. Ana o'sha payt erinmasdan mahsulotni birrov tekshirib olish imkoniga ega bo'lasiz".

Tilshunoslik fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o'rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda, mashina tarjimasida muhim ahamiyatga ega; mavjud va xayoliy narsalar (moddiylik va g'oyaviylik)ning o'zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongini va ijtimoiy mavjudot bo'lmish insonning o'zini to'g'ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon berdi. Til va tafakkurning, lisoniy va mantiqiy birlik

(kattalik)larning o'zaro aloqasi muammosi tilshunoslik va falsafa tomonidan baravar, bir vaqtning o'zida o'rganiladi. Asosiy lingvistik metodlar sifatida tavsifiy (qiyosiy, konfrontativ, kontrastiv, tipologik), tarixiy (qiyosiy-tarixiy, komparativ) va normativstilistik (me'yoriyuslubiy) metodlarni ko'rsatish mumkin. Tilshunoslikda yana maxsus tadqiqot usullari — lisoniy hodisalarni kuzatish, lisoniy eksperiment, lingvistik modellashtirish, lingvistik talqin usullari ham mavjud. Tilshunoslik falsafa va filologiya fanlari tutashgan chegarada paydo bo'lgan.

**XULOSA.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida keltirilgan onlayn savdo-sotiq jarayonida sodir bo'ladigan terminlarni ingliz tilidan, o'zbek tiliga tarjima qilishda yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasida leksik muammolarga yechimlarni ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, leksik transformatsiyadan tashqari semantik transformatsiya ham keltirib o'tilgan. Iqtisodiyot terminlarining butun nomini anglatuvchi terminlarga qaraganda kamroq ekanligini ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu maqolada tilshunoslik faniga ham to'xtalib o'tdik. Ma'lumki, tilshunoslik yoki lingvistika tillarni o'rganuvchi fandır.

Shu bilan birga, onlayn savdo-sotiqqa doir terminlarning leksik tarjimalariga yechimlarni ham ko'rishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Leksika>
2. Semenyuk N. N. "Iz istorii funktsionalno-stilisticheskix differentsiativnykh nemetskogo literaturnogo yazika [sayt ishlamaydi]." M., 1972. 215 b.
3. "Русский язык в современном мире" F. P. Filin tahrir. M., 1975. 301 b.
4. Vinogradov V. V. "Itogi obsujdeniya voprosov stilistik // Voprosi yazikoznaniya." 1955. № 1.

